

Allohga tavakkal



16:30 / 22.08.2021 5863

Musoning onasi jajji go'dagidan qattiq xavotirda edi. Qandoq ham qo'rqmasinki, yangi tug'ilgan chaqaloqlar dushmani qattiq kuzatuvda bo'lsa! Qanday ham qo'rqmasinki, mirshab o'nlab go'daklarni oilasidagi onalari bag'ridan yulqib olgan bo'lsa!

Chumolidek sezgir, qarg'adek o'tkirko'z jallodlardan bechora ona bolasini qanday qilib saqlab qola oladi? Shu holatda Alloh taolo Musoning bechora onasiga yordam berdi va farzandini sandiqqa solib, Nil daryosiga oqizish ilhomini berdi.

Allohu akbar!

Mehribon, mushfiq onaizor qaysi yurak bilan tuqqan bolasini sandiqqa solib daryoga oqizib yuboradi?! Bolani sandiqda kim emizadi?! Sandiq ichida go'dak

qanday nafas oladi?! Bularning barchasi munisa ona ko'nglidan tavakkul qilib, U bergan ilhomga muvofiq ish tutdi.

Aslida uy sandiqdan hafsizroq emasdi. Chunki go'dak ovchilari hamma joyda izg'ib yurishardi. Go'daklar dushmani qattiq kuzatuvda edi. Jallodlar chumolidek sezgir, qarg'adek o'tkirko'z edi.

Bechora ona Alloh amriga bo'ysunib, emizikli chiroyli bolasini sandiqqa soldi va uni Nilga uloqtirdi. Albatta ona besabrlik qildi. Lekin u parvardigorga tavakkal qilib, sabrli bo'ldi.

«Biz Musoning onasiga (Musoni tug'ib, uni ham Fir'avn odamlari kelib o'ldirishlaridan qo'rqib turgan paytda) vahiy qildikki: «Uni emizavergin! Bas, qachon (Fir'avn odamlari o'g'il ko'rganiningni bilishib qolib, uni o'ldirib ketishlaridan) qo'rqsang, uni daryoga tashlagin va qo'rqmagin ham, qayg'urmagin ham. Zero biz uni senga (ya'ni tirik holda) qaytarguvchidirmiz va uni payg'ambarlardan qilguvchidirmiz».

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad